Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz tijorat banklarining fond bozoridagi investitsion faolligini oshirish zaruriyati, mavjud holati va rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. Banklarning fond bozorida ishtirok etish mexanizmlari, investitsion portfollarni diversifikatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, kapital bozoridagi raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari tahlil qilingan. Maqolada banklarning aksiyalar va obligatsiyalar bo'yicha operatsiyalarini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda tartibga soluvchi-huquqiy muhitni optimallashtirish orqali investitsion faollikni oshirishning samarali yo'llari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari investitsion faoliyatini yanada rivojlantirish va fond bozorining jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, fond bozori, investitsiya faolligi, aksiyalar, obligatsiyalar, investitsion portfel, diversifikatsiya, risklarni boshqarish, kapital bozori, investitsion jarayonlar, moliyalashtirish mexanizmlari.

Abstract. This article examines the necessity of increasing the investment activity of commercial banks in our country's stock market, as well as the current state and development prospects. It analyzes the mechanisms of banks' participation in the stock market, the theoretical and practical foundations of investment portfolio diversification, and factors ensuring competitiveness in the capital market. The article proposes effective ways to enhance investment activity through expanding banks' operations with stocks and bonds, introducing digital technologies, improving risk management systems, and optimizing the regulatory and legal environment. The research findings contribute to further development of commercial banks' investment activities and to increasing the attractiveness of the stock market.

Key words: commercial banks, stock market, investment activity, stocks, bonds, investment portfolio, diversification, risk management, capital market, investment processes, financing mechanisms.

Аннотация. В данной статье раскрываются необходимость повышения инвестиционной активности коммерческих банков нашей страны на фондовом рынке, текущее состояние и перспективы развития. Проанализированы механизмы участия банков на фондовом рынке, теоретические и практические основы диверсификации инвестиционных портфелей, а также факторы обеспечения конкурентоспособности на рынке капитала. В статье предложены эффективные пути повышения инвестиционной активности через расширение операций банков с акциями и облигациями, внедрение цифровых технологий, совершенствование системы управления рисками и оптимизацию нормативно-правовой среды. Результаты исследования способствуют дальнейшему развитию инвестиционной деятельности коммерческих банков и повышению привлекательности фондового рынка.

Ключевые слова: коммерческие банки, фондовый рынок, инвестиционная активность, акции, облигации, инвестиционный портфель, диверсификация, управление рисками, рынок капитала, инвестиционные процессы, механизмы финансирования.

KIRISH

Jahon miqyosida iqtisodiy o'sish jarayonida kapital bozorlarining roli tobora ortib bormoqda. Xususan, mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq amaliyotlar salmog'ining yildan-yilga oshib borayotgani fond bozorlari infratuzilmasining rivojlanishi, moliyaviy instrumentlar turlari kengayib borayotgani va investorlarga taqdim etilayotgan imkoniyatlar ko'lamining ortib borishi bilan izohlanadi. «2024-yil 1-yanvar»



holatiga ko'ra, rivojlangan davlatlar misolida ushbu tendensiya yaqqol namoyon bo'lmoqda: AQSh iqtisodiyoti tarkibida qimmatli qog'ozlar bozorining ulushi 38 foizni, Yaponiyada 36 foizni, Xitoyda esa 19 foizni tashkil etadi. Dunyo fond bozorlarining umumiy kapitallashuvi tarkibida ham yuqori konsentratsiya kuzatilib, uning 67 foizi asosan uch mamlakat — AQSh, Yaponiya va Buyuk Britaniya hissasiga to'g'ri keladi. Eng yirik «yettilik» mamlakatlari ulushi esa global kapitallashuvning 75 foizini tashkil etishi ularning kapital bozorlarini iqtisodiyotning strategik omiliga aylantirganini ko'rsatadi [1].

Global iqtisodiyotda sodir bo'layotgan bunday jarayonlar qimmatli qog'ozlar bozorida spekulativ holatlarni cheklash, investitsiya faolligini oshirish, zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish hamda ularni fond bozori talablariga moslashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, bank tizimi kabi iqtisodiyotning asosiy moliyaviy institutlari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining fond bozorida ishtirok etish ko'lamini kengaytirish, ularning investitsion portfellarini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada mamlakatimiz tijorat banklarining fond bozoridagi investitsion faolligini oshirish zarurati, amaldagi holat, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularni turli xildagi moliyaviy xatarlardan himoya qilish va investitsion faoliyatining samaradorligini oshirish zamonaviy bank boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarning investitsiya portfelini kengaytirish va moliyaviy aktivlar turini diversifikatsiya qilish orqali ushbu maqsadlarga erishish mumkin. Bunda fond bozorining rivojlanganligi hamda unda mavjud moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining oshishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, ilmiy adabiyotlarda fond bozorining rivojlanish darajasini oshirish mexanizmlari va uni baholash indikatorlari bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas.

M. Dugarjapova iqtisodiyotning moliyaviy rivojlanishini baholashda investorlar va investitsiya jalb qiluvchi subyektlarning manfaatlarini kompleks hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, investitsiya oluvchilar uchun bozor hajmi, qulaylik darajasi, xarajatlar miqdori va investitsiyalarni jalb qilish muddati kabi ko'rsatkichlar ustuvor ahamiyatga ega [2].

N.B. Abuev, I.V. Oxotnikov va I.V. Sibirkovlarning ta'kidlashicha, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda IPO (Initial Public Offering) orqali aksiyalarni birlamchi joylashtirish hamda obligatsiyalar chiqarish asosiy vositalardan biri bo'lsa-da, tijorat banklari innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishda hali ham passivlikni namoyon etmoqda. Bu esa banklarning fond bozoridagi investitsion faolligini oshirish zarurligini ko'rsatadi [3].

A.V. Ramazanov kredit tashkilotlarining fond bozoridagi vositachilik faoliyati nafaqat aholi investitsion faolligini kuchaytirishi, balki qarz qimmatli qog'ozlarini chiqaruvchi korxonalarning emissiya jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu natija fond bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi [4].

Fond bozorining mohiyatini yoritishda xorijlik iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'riflar ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Raymon Barning ta'kidlashicha, fond bozori bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli investitsiya obyektlariga yo'naltirish, risklarni qayta taqsimlash va iqtisodiyot ishtirokchilari o'rtasida axborot uzatish funksiyalarini bajaruvchi murakkab texnik institutdir [5]. Xuddi shuningdek, G. Menkyu fond bozorini jamg'aruvchilar va qarzdorlarni bog'laydigan, ularga aksiyalar va obligatsiyalar orqali investitsiya qilish imkonini beruvchi moliyaviy muassasalar majmui sifatida izohlaydi [6]. K.R. Makkonnell va S.L. Bryular esa fond bozorini kapitalga ehtiyoj sezuvchi subyektlar bilan uni taklif qiluvchilarni birlashtiruvchi institut sifatida ko'rsatadi [7].

U.M. Alievning tadqiqotlarida esa investitsiya muhiti yaxshilanishi bilan korporativ obligatsiyalarning birlamchi va ikkilamchi bozorlaridagi ulushi ortib borishi ta'kidlanadi [9]. Bu esa fond bozorining rivojlanishi bevosita iqtisodiy subyektlar faoliyatining samaradorligi, moliyaviy shaffoflikning ta'minlanishi va investorlar ishonchining oshishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

F.S. Mishkinning ta'kidlashicha, «pul bozorining qimmatli qog'ozlari (aylanish muddati 1 yildan kam bo'lgan) yuqori likvidlik va kurs bahosi sezilarli o'zgarmasligi bilan ajralib turadi va milliy fond bozori sharoitida ishonchli investitsiyaga aylanadi» [10]. Mazkur segment qatnashchilarining asosiy maqsadi — vaqtincha erkin resurslar yordamida foyda olish yoki pul mablag'lariga bo'lgan qisqa muddatli ehtiyojni qondirishdan iborat. Kapitallar bozorining qimmatli qog'ozlari muayyan muddatda pul mablag'lariga ega investorlar, shuningdek, ulushli vositalar bozorining strategik investorlarida qiziqish uyg'otadi.

Fond bozorining savdo infratuzilmasi fond bozori infratuzilmasining muvofiqlashtiruvchi asosiy elementi hisoblanadi. Savdo tashkilotchilari qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha savdo maydonlari ishlashini



ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunida fond birjasiga «omnaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs» deb ta'rif berilgan [10].

Umuman olganda, fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirish jarayoni o'zaro bog'liq ko'plab iqtisodiy, institutsional va tashkiliy omillar majmuiga tayanadi. Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy samaradorligi oshgani sari ularning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari investitsion jozibadorlik kasb etib, bu holat kapital oqimlarini faollashtirish, bozor likvidligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday jarayonlar esa mamlakat iqtisodiyotining umumiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Fond bozori bozor iqtisodiyotining muayyan rivojlanish bosqichida kapitalning yangi shaklda qayta taqsimlanishini taqozo etuvchi zaruriy institut sifatida shakllangan bo'lib, iqtisodiy siklning barqaror ishlashi va moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Bu nuqtayi nazardan, fond bozorini yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish, ularni muomalaga chiqarish, oldi-sotdi jarayonlarini tashkil etish va hisob-kitob mexanizmlari bilan bog'liq murakkab iqtisodiy munosabatlar majmuasi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti qimmatli qog'ozlar muomalasiz to'laqlonli faoliyat yurita olmaydi. Shu bois fond bozorining institutsional rivojlanishi nafaqat real sektor korxonalari, balki tijorat banklari uchun ham strategik ahamiyatga ega. Xususan, fond bozori infratuzilmasining kengayishi banklarga investitsiya portfellari samaradorligini oshirish, risklarni diversifikatsiya qilish, moliyaviy instrumentlar turini ko'paytirish va uzoq muddatli resurslar bazasini mustahkamlash imkonini beradi. Shunday qilib, fond bozorining rivojlanishi tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning muhim omili sifatida maydonga chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyosiy tahlil, retrospektiv va istiqbolli tahlil, shuningdek, empirik metodlardan keng foydalanildi. Ushbu uslublar mamlakatimiz tijorat banklarining fond bozoridagi investitsion faolligini oshirish jarayonlarining ilmiy asoslarini chuqur o'rganish imkonini berdi. Maqolada qiyosiy tahlil usuli asosida rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarining fond bozoridagi investitsion faolligini oshirish bo'yicha yondashuvlar milliy bank amaliyotidagi mavjud yondashuvlar bilan solishtirilib, tijorat banklarining investitsion faoliyatini nazariy jihatdan takomillashtirishga doir xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Investitsiya faolligining oshishiga ta'sir qiluvchi omillarni baholashda quyidagi yondashuvlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, sifatli tahlil qilish orqali ekspert fikrlari hamda so'rovlardan foydalangan holda har bir omilning investitsiya faolligiga ta'sirini baholash. Ikkinchidan, miqdoriy tahlil orqali tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish hamda omillar va investitsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun statistik usullardan foydalanish. Uchinchidan, modellash jarayonida turli omillarning ta'sirini aniqroq bashorat qilish uchun ekonometrik modelni yaratish (1-rasm).

Investitsiya faolligi darajasi

Iqtisodiy muhit (masalan, YaIM darajasi, inflyatsiya)

Xavf darajasi
(siyosiy xavf, iqtisodiy beqarorlik)

Davlat va xususiy grantlar va subsidiyalarning mavjudligi

Infratuzilmaning rivojlanish darajasi (transport tarmoqlari, aloqa)

Soliq darajasi va boshqa tartibga solish jihatlari


1-rasm. Investitsiya faolligining oshishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash tartibi¹

1 Muallif ishlanmasi.



Investitsiya faolligini oshiradigan omillarni tushunish kompaniyalar hamda davlat idoralariga investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradi. Bu iqtisodiyotga kapital qo'yilmalarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakatimizda investitsiya faolligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni yanada rivojlantirish zarur. Ya'ni, qimmatli qog'ozlar bozoriga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish investorlar hamda tahlilchilarga investitsiyalar bilan bog'liq xavflarni baholash imkonini beradi. Bu ongli qarorlar qabul qilish hamda yo'qotishlarni minimallashtirish uchun muhimdir.

Kuchli fond bozori mamlakatning moliyaviy barqarorligiga hissa qo'shadi. Investorlar bozor o'sishiga ishonch hosil qilganda, ular ko'proq sarmoya kiritishga tayyor bo'ladi, bu esa umumiy iqtisodiy o'sishga, shuningdek, ko'proq innovatsion loyihalar hamda startaplarning rivojlanishiga olib keladi. Natijada texnologik taraqqiyot tezlashadi hamda yangi ish o'rinlari yaratilishiga yordam beradi (2-rasm).




2-rasm. Mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari hamda kreditlarining ulushi², foizda

Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari hamda kreditlarining ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda investitsiya faolligini oshirishga yaratilgan shart-sharoitlar evaziga 2023-yilda 2019-yilga nisbatan chet el investitsiyalari hamda kreditlari 13,1 foizga oshgan. Bu jarayonda asosiy ulushni Sirdaryo viloyatida 36,6 foiz, Navoiy viloyatida 26,8 foiz, Andijon viloyatida 24,3 foizga o'sish tashkil etgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida chet el investitsiyalari hamda kreditlari 12,3 foizga, Surxondaryo viloyatida esa 0,3 foizga kamayganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Mamlakat investitsiya salohiyatini baholash bo'yicha uslubiyot hududning investitsion jozibadorligi hamda undagi investitsion faollik o'rtasida ob'ektiv mavjud bo'lgan o'zaro aloqadorlikni hisobga oladi, bu esa investitsion iqlimni yaxshilash bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda muammoli nuqtalar hamda ko'rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi.

Investitsiyalarni jalb qilish mamlakat yoki mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, ushbu investitsiyalarning barqarorligini ta'minlash hamda nafaqat qisqa muddatli foydani ko'paytirish, balki ijtimoiy mas'uliyat va ekologik ongni ham hisobga olish zarur (3-rasm).

2 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



3-rasm. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri³

Tijorat banki hozirda qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib, har yili o'z ta'sirini oshirib, tobora ko'proq funksiyalarga ega bo'lmoqda. Tijorat bankining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini ikkita asosiy toifaga bo'lish mumkin: o'z investitsiya faoliyati hamda vositachilik faoliyati. Keling, har birini biroz batafsilroq ko'rib chiqaylik.

Tijorat bankining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati — bu dividendlar shaklida to'g'ridan-to'g'ri daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan holda, o'z mablag'lari hisobidan operatsiyalarni o'z nomi bilan amalga oshirishdir. Shuni esda tutish kerakki, ushbu operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida bank investitsiya qilingan mablag'larni yo'qotish xavfiga duch keladi.

Banklarning vositachilik faoliyati esa o'z kapitalini investitsiya qilmasdan, uchinchi shaxslar nomidan faoliyatni amalga oshirishni anglatadi. Bunga brokerlik, ishonchli boshqaruv operatsiyalari, investitsiya bo'yicha maslahatlar hamda qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan kreditlash kiradi. Albatta, ushbu operatsiyalarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, bu yerda faqat asosiylari sanab o'tildi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning ustunligi va muhim roli ularning rivojlangan moddiy-texnik bazasi, xodimlar faoliyatining muvofiqlashtirilganligi hamda iste'molchilar tomonidan yuqori darajadagi ishonch bilan bog'liq (1-jadval).

3 Muallif ishlanmasi.

1-jadval. AJ “O‘zmilliybank”ning qimmatli qog‘ozlar hamda investitsiya faoliyati tahlili⁴

Asosiy ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari, ming so‘mda	207622560	450103366	450100456	1554616680	2118656680
Jami aktivlardagi tarkibidagi ulushi, foizda	0,31	0,56	0,57	1,30	1,84
Investitsiyalar, ming so‘mda	783693654	1513376215	1506787730	1490001854	1583301944
Jami aktivlardagi tarkibidagi ulushi, foizda	1,18	1,90	1,92	1,24	1,37
Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli daromadlar, ming so‘mda	14339560	102934504	15473450	128601096	41974154
Jami foizli daromadlar tarkibidagi ulushi, foizda	0,328	1,738	1,022	1,212	1,398
Jami aktivlar, mlrd. so‘mda	66604988021	79861143012	78454670003	119918141003	115417455001
Jami foizli daromadlar, ming so‘mda	4375719317	5921774493	1513985846	10609818824	3002448152

Respublikamiz bank tizimida birinchi o‘rinda turuvchi AJ “O‘zmilliybank”ning qimmatli qog‘ozlar hamda investitsiya faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda bu ko‘rsatkichlar nisbatan kam hajmda bo‘lsa ham o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari 2019-yilda 207 622 560 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, yillar davomida o‘tib borib, 2023-yilda 1 911 034 120 ming so‘mga ortib, 2 118 656 680 ming so‘mni tashkil qilgan. Bu esa jami aktivlar tarkibida ham o‘z aksini ko‘rsatgan: 2019-yilda atigi 0,31 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 1,84 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, biz tadqiqotimiz davomida bankning investitsiyalarini ham tahlilini amalga oshirdik, ya‘ni 2019-yilda 783 693 654 ming so‘m investitsiyalash amalga oshirilgan bo‘lsa, yillar kesimida yirik loyihalarni investitsiyalash o‘tib borib, 2023-yilda 799 608 290 ming so‘mga ortib, 1 583 301 944 ming so‘mni tashkil etganligini ko‘rib turibmiz. Agar investitsiyalashning bank aktivlari tarkibidagi ulushiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlar ulushiga nisbatan birozgina 2019-yilda hamda 2020-yillarda baland bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda pasayish tendensiyasini ko‘rsatgan.

O‘z navbatida, oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli daromadlar ham amalga oshirilgan operatsiyalar hajmiga bevosita bog‘liqdir. Daromadlar bank faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli daromadlar 2019-yilda 14 339 560 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 27 634 594 ming so‘mga ortib, jami 41 974 154 ming so‘mni tashkil etgan. Agar ushbu ko‘rsatkichlarning jami foizli daromadlar tarkibidagi ulushiga e‘tibor bersak, unda ham 2019-yilda bir foizga ham yetmagan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bir foizdan ortiqni tashkil etgan. Umuman olganda, bank daromadlarida yuqorida tahlil etilgan ko‘rsatkichlarning ulushi sezilarli darajada oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda fond bozorining rivojlanishi investitsiya faolligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni chuqur o‘rganish va baholashni talab etadi. Investitsiya faolligiga ta‘sir qiluvchi omillarni sifat, miqdoriy va modellashirish yondashuvlari orqali baholash natijalari shuni anglatadiki, investitsion jarayonlarda puxta tahlil, ishonchli prognozlar va statistik asoslangan qarorlar qabul qilinishi iqtisodiy samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda chet el investitsiyalari va kreditlari ulushining oshib borayotgani, hududlar kesimida investitsiya oqimlarining farqlanishi hamda ayrim hududlarda pasayishlar kuzatilayotgani investitsion muhitni yanada takomillashtirish, hududiy investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi. Investitsiya salohiyatini baholash uslubiyotining hududlar rivojlanishidagi muammoli nuqtalarni aniqlashi esa kompleks investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarining fond bozorida ishtiroki investitsion faollikni rag‘batlantiruvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarida investitsion va vositachilik faoliyatlari o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, ularning fond bozoridagi mavqeini mustahkamlaydi.

4 Muallif hisob-kitoblari (www.nbu.uz AJ “O‘zmilliybank” sayti ma‘lumotlari asosida).



“O‘zmilliybank” misolida ko‘rib chiqilgan tahlillar bank aktivlari tarkibida oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari ulushining yildan-yilga ortib borayotganini, investitsiyalarning sezilarli o‘shishini hamda foizli daromadlar tarkibida ushbu operatsiyalarning ulushi kengayayotganini ko‘rsatdi. Bu esa tijorat banklarining fond bozorida yanada faol ishtirok etishi uchun zarur amaliy baza shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, fond bozorining barqaror rivojlanishi, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining kengayishi, shaffoflik va raqobatbardoshlikning ta‘minlanishi tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish uchun asosiy shartlardandir. Shu bilan birga, investitsion xavflarni samarali boshqarish, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini qo‘llab-quvvatlaydigan institutsional muhitni mustahkamlash, hududlarda investitsion jozibadorlikni oshirish kabi omillar banklarning fond bozoridagi faoliyatini yanada kuchaytiradi. Demak, mamlakatimizda investitsion siyosatning izchil amalga oshirilishi fond bozori imkoniyatlarini kengaytiradi hamda tijorat banklarining iqtisodiyotdagi investitsiyaviy rolini sezilarli ravishda oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon fond bozorlari federatsiyasining yillik byulleteni (WFE FY 2024 Market Highlights) ma‘lumotlari.
2. Дугаржапова М.А. Состояние российского финансового рынка: тенденции, вызовы, возможности // Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент. 2021. № 4. С. 52–61
3. Абуев Н.Б., Охотников И.В., Сибирко И.В. Основные проблемы финансирования инноваций на предприятии // Modern Economy Success. 2021. № 5. С. 75–78
4. Ramazanov A.V. Factors affecting the stock market in Russia and regulation of its development. Vektor nauki Tolyattinskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Ekonomika i upravlenie, 2022, no. 1, pp. 32–40.
5. Барр Р. Политическая экономия. Т.-М. Международные отношения, 1995, С.319.
6. М. Грэгори. Принципы экономикс. – СПб.: Питер Кем., 1999, С.538.
7. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. – М: Инфра М. 2003, С.62.
8. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. Иқт. фан. док. илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация автореферати. - Тошкент, 2008.-37б.
9. Алиев У.М. Пути совершенствованию функционирования инфраструктуры рынка ценных бумаг. Иқт. фан. ном. илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент, БМА. 2008. 19 б.
10. Mishkin, Frederic S. The economics of money, banking, and financial markets/ Columbia University.-1989.-P47.
11. O‘zbekiston Respublikasining 03.06.2015 yildagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-387-son Qonuni // <https://www.lex.uz/ru/docs/-2662539>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
